

YuMB dan UMUMIY SAVOLLAR 3 uzb

1. Polimerlarni ajoyib xossalariga misollar keltiring.
2. Polimerlarni boshqa birikmalardan farqini tushuntirib bering.
3. Polimerlar qanday tuzilgan.
4. Polimerlar qanday nomlanadi.
5. Polimerlar qanday sinflanadi.
6. Polimerlarning molekulyar massasi boshqa birikmalar molekulyar massasidan qanday farq qiladi.
7. Polidisperslik nima.
8. O'rtacha raqamli molekulyar massa nima va qaysi usullar bilan aniqlanadi.
9. O'rtacha massali molekulyar massa nima va qaysi usullar bilan aniqlanadi.
10. Viskozimetrik usul bilan molekulyar massa qanday topiladi va u o'rtacha raqamli molekulyar massadan qanday farq qiladi.
11. Tabiiy va sintetik polimerlar hosil bo'lishining farqi nima.
12. Polimerlanish va polikondensatlanishni ta'riflab bering.
13. Polimerlanishning bosqichlarini tushuntirib bering.
14. Radikallar qanday paydo bo'ladi. Initsiatorlar nima. Misollar keltiring.
15. Kationli polimerlanish qanday boradi. Misollar keltiring.
16. Anionli polimerlanish qanday boradi. Misollar keltiring.
17. Ion-koordinatsion polimerlanishni ta'riflab bering.
18. Qanday katalizatorlarni Sigler-Natta katalizatori deyiladi.
19. Stereoregulyar polimerlar zanjiri qaysi holatda bo'ladi.
20. Stereoregulyar polimerlarga misollar keltiring.
21. Gomopolimer va sopolimer farqini tushuntirib bering.
22. Statistik sopolimerni ta'riflang va sxematik ravishda ko'rsating.
23. Blok sopolimerni ta'riflang va sxematik ravishda ko'rsating.
24. Payvand sopolimerni ta'riflang va sxematik ravishda ko'rsating.
25. Nechta a'zoli sikllar polimerlanishga qodir. Sikllarni polimerlanishga misol keltiring.
26. Sikllar polimerlanishining bosqichlari.
27. Blok polimerlanish nima va bu polimerlar sanoat qaysi sohalarida ishlatiladi.
28. Erituvchi modda ishtirokida olingan polimerlar sanoatining qaysi sxemalarida ishlatiladi.
29. Emulsion polimerlanishda ishlatiladigan moddalar.
30. Emulsion polimerlanishning asosiy afzalliklari.
31. Polikondensatlanish polimerlanishdan nima bilan farq qiladi.
32. Gomo- va getero- polikondensatlanish nima bilan farq qiladi. Misollar keltiring.
33. Qanday guruhlar monomerlarning funksional guruhlari bo'lishi mumkin.
34. Polikondensatlanishda hosil bo'lgan polimer qanday nomlanadi va qanday bo'g'inlararo bog'lanishlar paydo bo'ladi.
35. Qaysi holatlarda chiziqsimon va qaysi holatlarda fazoviy to'rsimon tuzilishga ega bo'lgan polimerlar hosil bo'ladi.
36. Polikondensatlanishning asosiy bosqichlarini tushuntirib bering.
37. Suyultirilgan holatda polikondensatlanishning afzalliklari va kamchiliklarini sharxlab bering.
38. Qaysi monomerlar eritmada polikondensatlanadi.
39. Eritmada polikondensatlangan polimerlar qaysi sohalarda ishlatiladi.
40. Qaysi reaksiyalar orqali polimerlarni organik moddalarga xos modifikatsiyalanadi.
41. Polimeranalogik o'zgarish nima va u qanday bajariladi. Misol keltiring.
42. Makromolekula ichida funksional guruh hisobida boradigan reaksiyalarni tushuntiring va misol keltiring.
43. Makromolekulalararo reaksiyalar qanday bajariladi.
44. Kauchukdan qanday rezina olinadi.
45. Teridan qanday charm olinadi.
46. Polimerlar destruksiyasi qanday va qaysi sharoitda boradi.
47. Destruksiya natijasida polimer sifatiga qanday o'zgarishlar bo'ladi.
48. Polimerlar eskirishini oldini olish uchun qanday choralar ko'riladi.
49. Quyi molekulyar moddalar bilan polimerlarning agregat holatlari nima bilan farq qiladi.

50. Amorf holat nima.
51. Chiziqli amorf polimerlarning uch fizikaviy holatini tushuntirib bering.
52. Termomexanik egri chizig'idagi bir fizikaviy holat ikkinchi holatga o'tishi qanday baholanadi.
53. Polimerlarda kristall holat qanday tasvirlanadi.
54. Kristallanish darajasi nima va qanday aniqlanadi.
55. Mikrokristallik polimerlarning qanday xossalari yaxshilanadi.
56. Tolalardagi sferolitlar qaysi xossalarni yomonlashtiradi.
57. Mexanik kuch ta'sir etganda polimerlarning qaysi xossalari o'zgaradi.
58. " Kuchlanish-deformatsiya diagrammasida" plastiklik maydoni " qanday holatni belgilaydi.
59. Umumiy deformatsiya qaysi deformatsiyalardan tashkil topgan.
60. Relaksatsiya nima.
61. Qanday hodisalar relaksatsion hodisalar deb ataladi.
62. Tabiiy selluloza polimeri strukturasining tashkil topishini tushuntiring.
63. Keratin polimeri strukturasining tashkil topishini tushuntiring.
64. Qanday eritmalarga polimer eritmaları deyiladi.
65. Polimerlarda bo'kish jarayoni qanday boradi.
66. Bo'kish darajasi qanday topiladi.
67. Polimer eritmaları termodinamik jihatdan barqarormi.
68. Termodinamik jihatdan qaysi holatda polimerning erishi o'z-o'zidan boradi.
69. Qanday eritmalarga polimerlarning suyultirilgan eritmaları deyiladi va ular qanday xossalarga ega.
70. Eritmalarning qovushqoqligi nima.
71. Polimer eritmalarining struktura qovushqoqligi nima.
72. Polimerlarning konsentrlangan eritmaları to'qimachilik va yengil sanoatning qaysi sohalarda ishlatiladi.
73. To'qimachilik va yengil sanoatda ishlatiladigan polimerlarning bir necha muhim vakillarini xarakterlab bering.
74. Polietilenni olish usullari va ishlatilishini sharxlab bering.
75. Polipropilen qaysi usullar bilan olinadi va qaysi sohalarda ishlatiladi.
76. Polivinilxlorid qanday olinadi va qayerlarda ishlatiladi.
77. Polivinilatsetat qanday olinadi va qayerlarda ishlatiladi.
78. Poliakrilonitril " Navoiy azot " birlashmasida qaysi usul bilan olinadi va qaysi tola shakllantiriladi.
79. Sopolimer sintetik kauchuklar qanday xossalarga ega.
80. Polietilenoksid qayerlarda ishlatiladi.
81. Poliamid va poliefirdan olingan tolalar.
82. Qaysi o'simliklar tarkibida selluloza mavjud va qaysi darajada.
83. Yog'ochdan qaysi usullar bilan selluloza olinadi.
84. Sellyuloza qayerlarda ishlatiladi.
85. Tabiiy ipakning tarkibi qaysi oqsillardan iborat.
86. Fibroin va seritsin oqsillarining farqi nimadan iborat.
87. Jun va teri qaysi oqsillardan tashkil topgan.
88. Tabiiy ipakning tekisligi va junning jingalakdorligining asosiy sababi nima.